BOSHLANG‘ICH SINFLARDA MASAL JANRIGA OID MATNLAR USTIDA ISHLASH

Botirova Xurshida Rustam qizi
Sadiqulova Nilufar Abdumannob qizi
Guliston davlat pedagogika instituti boshlang‘ich ta’lim yo‘nalishi 3-bosqich talabalari

Annotatsiya. Ushbu tezisda boshlang‘ich sinf darsliklarida berilayotgan masal janriga xos matnlarning zamonaviy ta’lim tizimida yang innovatsion vositalar orqali o‘tilishi berilgan. Masallarni o‘qitish orqali bolalarnng mustaqil fikrlashini o‘stirish,ta’limiy-tarbiyaviy jihatdan bilimini oshirish muhimligi ko‘rib chiqilgan.

Kalit so‘zlar: zamonaviy ta’lim tizimi, masal, adabiyot nazariyasi, liro-epik janr, interfaol metodlar, ijodiy ishlar, ma’naviy tarbiya, interfaol usul, aqliy salohiyat.

Abstract. In this thesis, the passage of the parable genre texts given in primary school textbooks in the modern education system through new innovative tools is given. The importance of developing children's independent thinking and increasing their educational and educational knowledge through the teaching of parables was considered.

Key words: modern educational system, parable, theory of literature, lyric-epic genre, interactive methods, creative works, spiritual education, interactive method, mental capacity.

Rivojlanib borayotgan zamonda yashar ekanmiz, jahonda va yurtimizda bo‘layotgan o‘zgarishlarni bilmasligimiz mumkin emas, hattoki. O‘sib kelayotgan o‘quvchi yoshlarga ta’lm va tarbiyani birdek singdirish esa biz, boshlang‘ich sinf oqituvchilarining oldiga qo‘ygan eng asosiy vazifasidir. Ularning ma’naviyatini, mustaqil fikrlash ko‘nikmalarini yanada o‘stirish zarur.

Inson o‘zligini anglashi va o‘zining insoniylik burchini mukammal bajarishi uchun ma’lum e’tiqodga ega bo‘lishi, hayotning asl mohiyati nimada ekanligini chuqur anglashi lozim. Bunda esa yaxshi ta’lim va ma’naviy tarbiyaning o‘rni nihoyatda katta. Ma’naviy tarbiya atamasi insonni komil inson sifatida shakllantirishga, uning ijtimoiy hayotda faol ishirokini ta’minlashga qaratilgan barcha ma’naviy ta’sirlarni o‘z ichiga oladi. Shuni ham aytib o‘tish lozimki, badiiy asarlarning ma’naviy ta’sir kuchi qolganlariga nisbatan sezilarli darajada kuchli. Shularni inobatga olgan holda boshlang‘ich sinf o‘quvchilari darsligiga badiiy matnlar bilan ishlashga oid turli xildagi topshiriqlar kiritildi.

Ta’lim beruvchi va oluvchi ham mustaqil fikrlash qobiliyati rivojlangan bo‘lishi kerak. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilariga mo‘ljallangan har qanday asarda bolalarning muloqat madaniyati va erkin fikr yurita olish kabi vositalarni bajaradi. Jumladan o‘quvchilar uchun tez va oson eslab qolishda masal janri katta ahamiyatga ega. Masal - axloqiy, satirik va kesatiq mazmunini kinoyaviy obrazlarda aks ettirgan aksariyat kichik she’riy, ba’zan nasriy asardir. Inson xarakteriga xos xususiyatlar masalda majoziy obrazlar – hayvonlar, jonivorlar va o‘simliklar dunyosiga ko‘chiriladi. Timsollarning kinoyaviy xarakterda bo‘lishidan tashqari, kulgili savoljavob ham masal tili va uslubi uchun xarakterlidir. Ko‘pincha masalning kirish qismida, ba’zan pirovardida qissadan hissa – ibratli xulosa chiqariladi.

Adabiyot nazariyasida masalga liro-epik janrlardan biri sifatida she’riy shakldagi, majoziy xarakterdagi qisqa syujetli asar deb ta’rif beriladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi.

Masal janrini o‘rgatish orqali o‘quvchilarda yolg‘onchilik, ikkiyuzlamachilik, qo‘pollik, yalqovlik, beparvolik va qo‘rslik kabi illatlarni yo‘q bo‘lishi uchun yordam beradi. Bu kabi illat yoki nuqsonlarni har bir o‘quvchida yo‘q bo‘lishi uchun turli xil mavzudagi masallar bilan tanishtirish va shu orqali kitobxonlikni ham shakllantirish uchun asos bo‘ladi. Masallarda turli hayvonlar majoziy suratda asarning qahramonlari sifatida tasvirlanadi.Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo‘lgan kichik piesani eslatadi. U biror voqea-hodisani qisqa, mazmunli tasvirlashda ajoyib namuna bo‘la oladi.“Antik adabiyotda Ezop masallari juda mashhur bo‘lgan. O‘z ma’nosidan ko‘chirilgan (majoziy) so‘z va kinoyaviy iboralar orqali qilinadigan “yashirincha” tanqidning tili va uslubi Ezopga nisbatan berilib, “Ezop tili” deyilgan va shu ta’bir joriy qilingan”.Mashhur masalnavis Gulxaniyning “Toshbaqa bilan Chayon”, “Maymun bilan Najjor” masallari boshlang‘ich sinf o‘quvchilarining yoshiga mos keladi. Ularda do‘stlik, rostgo‘ylik, qo‘lidan kelmaydigan ishga urinmaslik kabi g‘oyalar ilgari suriladi.

O‘quvchilar faqat masalni o‘qibgina qolmasdan tahlil qilish ko‘nikmasini ham shakllantirish kerak.Agar o‘qigan asarini ongli ravishda tushuna bilsa, asarlarni anglab yetishida hech qanday muammo bo‘lmaydi. Masal kichik hajmli, ammo boy mazmunli, tugun, kulminatsion nuqta va yechimi bo‘lgan kichik pyesani eslatadi. Masalan, o‘qish darslarida o‘quvchilar badiiy asar matni ustida ishlash orqali o‘zlariga kerakli hayotiy saboqlarni oladilar. Bundan tashqari ular matn tahlili jarayonida asar qahramonlarining xatti-harakatlarini birma-bir tahlil qilib, yaxshi qahramonlardan o‘rnak oladilar, ularga o‘xshashga harakat qiladilar, shu bilan birga asardagi voqealardan ta’sirlanadilar.

Dars o‘tish jarayonida, ayniqsa, boshlang‘ich sinf o‘quvchilari uchun bunday metodlardan foydalanish ularning aqliy salohiyatini oshirishdagi muhim omillardan biri hisoblanadi. Misol sifatida Ezopning masallarini o‘quvchilarga oson tarzda tahlil qilishni va tushunib mag‘zini chaqishni o‘rgatish o‘qituvchining vazifasidir. “Yovvoyi echkilar va cho‘pon” masalini o‘qitish orqali o‘quvchilar juda ko‘p ma’lumotlarni olishi va hayotda ham shularga asoslangan holda yashashga o‘rgatadi. Masalda cho‘pnning echkilariga qo‘shilib,yovvoyi echkilar kelib qo ‘shilishadi. Va shu bilan ertasiga yomg‘ir yog‘ganligi sababli echkilarni yaylovga olib

chiqmaydi.Yovvoyi echkilarga juda ko‘p yem-xashak beradi cho‘pon. Lekin o‘zining echkilariga ozgina qilib beradi. Shunda echkilar xafa bo‘ladi. Ertasiga hamma echkini yaylovga yuborganda yovvoyi echkilar qochib,faqat eski echkilari qoladi. Shunda cho ‘pon ularga qarata “ey echkilar men sizlarga o‘zimning echkilarimdan ham yaxshi qaragandim, lekin sizlar vafo qilmay qochib ketdinglar”,- deb o ‘ksinib gapiradi. Qissadan hissa shuki, inson hech qachon yangi do‘st topganda eski do‘stni unutmaslik kerak. Bunda echkilar timsolida ikkita ma’noni anglash mumkin. Ya’ni birinchisi o‘zining manfaati uchun harakat qiladigan insonlar, ikkinchisi esa sadoqatli do‘st timsoli gavdalanadi. Bu bilan o‘quvchilarga har doim do‘stga vafodor bo‘lish, yangi do‘stlar ko‘proq topish kerak, lekin eski do‘stlarni ham unutmaslik kerakligini o‘rgatadi. Buni qiziqarli tarzda ham o‘tish mumkin. O‘quvchilarning yodida muhim o‘rnashib qolishi uchun sahna ko‘rinish tarzida ham o‘tish mumkin. Cho‘pon obrazini bir o‘quvchi. Yovvoyi echkilar bir nechta o‘quvchi Echki bitta o‘quvchi. Bunday qilib sahnalashtirilsa, o‘quvchining nutqiy salohiyati va sahnada o‘zini tutishi kabi madaniyat ham shakllanadi. Masal ustida ishlash quyidagi bosqichlarni o‘z ichiga oladi:

1. Masal mazmunini aniq idrok qilish.
2. Qatnashuvchilarning xarakteriga mos xususiyatlarini, xatti-harakatlarinining sabablarini ochish.
3. Allegoriyani aniqlash.
4. Masal xulosasini tahlil qilish.

Boshlang‘ich sinf darsliklarida ilmiy jihatdan bo‘lmasa-da, amaliy jihatdan turli janrdagi kichik asarlar o‘qib o‘rganiladi. Bunga misol tariqasida she’r, ertak, hikoya, maqol, masal, rivoyat va topishmoqlarni keltirish mumkin. Biroq, ularga yuzaki qarash bilan chegaralanib qolmaslik kerak, chunki har bir janrga oid asar matni lingvistik jihatdan o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Masalan, she’riy asarlar matni hikoya matnidan, topishmoqlar esa maqol janridan tubdan farq qiladi. Shu sababli badiiy asarlarni o‘qish va ularning matni ustida ishlashda o‘qituvchidan unga mos bo‘lgan usullarni qo‘llash talabi qo‘yiladi. Bu borada eng keng tarqalgan usullardan biri “Qayta hikoyalash” metodi hisoblanadi. O‘qilgan asar mazmunini qayta hikoyalash o‘quvchiga asar rejasini tuzishga yordam beradi. Reja asosida qayta hikoyalash o‘qituvchi savoliga javob berishga qaraganda ancha oson va mustaqil jarayon hisoblanadi. Reja tuzishda o‘quvchi hikoyani tarkibiy qismlarga bo‘ladi va har bir qismdagi asosiy fikrni aniqlaydi. Bularning barchasi analitik ish hisoblanadi. Keyin esa o‘quvchilar sintetik ishga, ya’ni hikoyaning har bir qismiga sarlavha topishga kirishadilar. Sarlavha topish va uni jamoa bo‘lib muhokama qilish, shuningdek, reja tuzish jarayonining o‘zi o‘quvchining fikrlash qobiliyatini o‘stirish, o‘z mulohazasini isbotlash singari faoliyatlarini yanada rivojlantiradi. Badiiy matnlarni o‘qish bilan bog‘liq holda o‘tkaziladigan ijodiy ishlar ham o‘quvchilarning nutqi va tafakkurini o‘stiradi, matn mazmunini o‘zlashtirishga yordam beradi.

O‘qilgan badiiy matn mazmuniga mos keladigan rasm chizish usulida o‘quvchi rassomlar tomonidan chizilgan rasmlardan eng munosibini tanlaydi yoki o‘z tasavvuriga tayangan holda rasm chizadi. Biroq o‘quvchilar orasida rassomlik qobiliyatiga ega bo‘lmaganlari ham uchrab turadi. Bunday hollarda o‘quvchi o‘zi chizmoqchi bo‘lgan rasmni og‘zaki shaklda tasvirlab beradi, ya’ni so‘zlar yordamida rasm chizadi. Bu usulni qo‘llash o‘quvchilarda rassomlik, qolaversa, ixtirochilik qobiliyatini shakllantirishga yordam beradi.

Boshlang‘ich sinf “O‘qish kitobi” darsliklarida masal janriga kam o‘rin berilgan. Vaholanki, bola tarbiyasida masalning o‘rni beqiyosdir. Masaldagi qissadan hissa o‘quvchi matndagi e’tibordan chetda qoldirgan, yuzaki o‘qib o‘tib ketgan, yaxshi anglashga harakat qilmagan o‘rinni, bo‘shliqni to‘ldiradi. 3-sinf “O‘qish kitobi”dan o‘rin olgan “Qaysar buzoqcha” (O. Qo‘chqorbekov) masali oilasi, o‘rtoqlari, do‘stlaridan ajralib, yomon yo‘llarga kirib qolgan, oqibatda ko‘ngilsiz holatlarga tushib qolgan bolalarni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ushbu masaldagi asosiy xulosa masal oxirida berilgan qissadan hissada, ya’ni otabobolarimiz yaratib, bizga nasihat sifatida qoldirgan “Bo‘linganni bo‘ri yer” hikmatida o‘z ifodasini topgan. Bu hozirgi kunda maqol tusini olgan. Shoir esa bundan juda ustalik bilan foydalangan. o‘quvchilarning ijodiy faolligi bilan bir qatorda ijodiy fikrlash doirasi ham yanada kengayadi. Demak, boshlang‘ich

sinflarda badiiy matnlar ustida ishlashda hikoya mazmunini o‘zlashtirish bo‘yicha matn asosida quyidagicha ishlarni qo‘llash maqsadga muvofiqdir:

1. Matn yuzasidan o‘quvchilar bilan savol-javob o‘tkazish.
2. O‘quvchilarga hikoya mazmuni yuzasidan savollar tuzish topshirig‘ini berish. Hikoyani o‘rganishda savollarni, odatda, o‘qituvchi beradi, ammo asar mazmuni va undagi qahramonlar xarakteri hamda xulq-atvorini ochish yuzasidan o‘quvchilarga ham savol tuzdirish juda samarali natija beradi.
3. Matn yuzasidan o‘quvchilarda paydo bo‘lgan savollarga aniq javob berish.
4. Hikoya mazmuniga mos bo‘lgan rasmlar chizdirish.
5. Matnni o‘qishdan avval unda uchraydigan o‘quvchilar uchun notanish bo‘lgan so‘zlar ma’nosiga alohida e’tibor qaratish.
6. Hikoya matnini qismlarga bo‘lish.
7. Har bir qismga alohida sarlavha tuzish.
8. O‘quvchilarga hikoya yuzasidan reja tuzdirish.
9. Reja asosida qayta hikoyalash.
10. Hikoya mazmuniga qisman yoki to‘liq mos keladigan maqol va topishmoqlardan foydalanish.
11. Matn yuzasidan bayon yozdirish va hokazo

O‘quvchilarga ushbu bosqichlarni o‘rgatish masal janrini yanada mukammal anglab, xulosa chiqarshlariga ko‘maklashadi. Masal qahramonlari hayvonlar, parrandalar, hasharotlar, gular, o‘simliklar sifatda berilgani sabab o‘quvchilar qiziqib o‘qiydilar.

Xulosa o‘rnida shuni aytish mumkinki, har qanday mavzuni o‘tishda yangi innovatsion texnologiyalar asosida o‘tish bolaning chaqqonlikka, topqirlikka va mustaqil ravishda harakat qilishga, fikrlashga o‘rgatadi. nutq o‘stirish mashg‘ulotlarida bolalarning badiiy asarlarni o‘qib, qayta hikoya qilib berishlariga alohida e’tibor qaratish zarur. Har bir mamlakatning taraqqiyoti, ma’naviy yuksalishi rivojlanishi, shak-shubhasiz, shu yurtning bilimli, shijoatli yoshlari qo‘lidadir. Bunday yoshlarni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash, fidoyi, iymonli avlodni voyaga yetkazish, o‘qitishni yuqori pog‘onalarga olib chiqish singari sharafli va mas’uliyatli vazifalar, avvalo, o‘qituvchi va tarbiyachi murabbiylar zimmasiga yuklatilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1.Karima Qosimova, Safo Matchonov, Xolida G‘ulomova, Sharofat Yo‘ldosheva, Sharofjon Sariyev “Ona tili o‘qitish metodikasi”.

2. Qosimova K., Matchonov S., G‘ulomova X., Yo‘ldosheva Sh., Sariev Sh. Ona tili o‘qitish metodikasi. Toshkent: Noshir, 2019. 3. “Ezop masallari”. Tarjima Qodir Mirmuhamedov 2021.

3. Ona tili o‘qitish prinsiplari va metodlari. A. G‘ulomov. T.:O‘qituvchi, 2023

4. Tarbiyaviy darslarni o‘tish. Sinf rahbarlari uchun qo‘llanma. A. Jo‘rayev. T.:O‘qituvchi, 2020.

5. “Boshlang‘ich ta’lim saboqlari” Z. Mehriddinov, O. Isamuhammedov. Toshkent 2021.

6. “Boshlang‘ich ta’limda zamonaviy pedagogik texnologiyalar” T. G‘afforova. Toshkent 2022

7. Ilmiy maqola va o‘quv qo‘llanmalar.

8. Internet saytlari.